



TALABA-YOSHLARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT YORDAMIDA ESTETIK MADANIYATINI TARBIYALASH

Xojametov A.A.

*Qori-Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Qoraqalog‘iston filiali mustaqil taqiqotchisi*

Tayanch so‘zlar: estetik tarbiya, mehnat, sport estetikasi, shaxs va jamiyat, tafakkur.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, труд, спортивная эстетика, личность и общество, мышление.

Key words: aesthetic education, work, sports aesthetics, personality and society, thinking.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri - yuksak ma’naviyatli, har tomonlama barkamol yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Yuksak ma’naviyatli, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalangan avlodni shakllantirish, estetik tarbiyaning jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish masalasi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Estetik tarbiya va ma’naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning har xil komponentlari bo‘yicha Aleuov U., Abdulla Sher., Utebayev T., Bekimbetova G., Masharipov Y., Husanov B., Rahimova K., Saliyeva Z., Sayidaxmedov N., Umarov E., Jamoldinova O., Musurmonova O., Maxmudov B., Torejanova R., Tulenova G kabi Respublikamiz olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan.

Tarbiyaning estetik shakli ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etar ekan, u o‘z navbatida, kishilarga jamiyatda olib borilayotgan ijobiy ishlardan zavqlanish, demokratik munosabatlarga nisbatan qiziqish tuyg‘usini uyg‘otishni o‘zining asosiy maqsadi deb biladi. Shuning uchun ham estetik tarbiyaning pirovard maqsadi inson ma’naviy olamini boyitishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim. U insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda uni nafasot tamoyillari, go‘zallik talablari asosida rivojlantirishga o‘rgatadi ham. Nega desangiz, inson dunyoga estetik qarashi boy, tuyg‘ular va didi tarbiyalangan

xolda kelmeydi. Aksincha, bu ko'nikmalarni hayotni kuzatishi, o'rganishi va ulardan tegishli xulosalar olishi natijasida shakllanib boradi. Inson ana shu tuyg'ular ta'sirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi. Shunday ekan, o'z-o'zidan ma'lumki, mazkur zaruriyatni teran anglagan inson jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shilmaslikga, unga beparvo munosabatda bo'lishga ma'nau haqqi yo'q [1].

Estetik tarbiyaning barcha vositalari talaba-yoshlarning voqelikka estetik munosabatini ravnaq toptirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat bo'lib, u o'ziga xos ta'sirchanlik, tug'yoniqlik kuchiga ega. Busiz inson bilish ko'lamining vujudga kelishi mumkin emas. Shuningdek, inson badiiy tafakkur qilish qobiliyatini o'stirish ayni paytda estetik tarbiya vositalarining muhim vazifasi sanaladi. Shunga ko'ra, estetik tarbiya vositalari ikki xil xususiyati bilan ajralib turadi. Birinchidan, ular voqelikda sodir bo'layotgan hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni insonga tushunarli tarzda yetkazib beradi. Ikkinchidan, zamonaviy fanlarning estetik xususiyatlarni hissiy idrok qilishning faol, tajribalar asosida etkazib berishi bilan diqqatga sazovordir. Shunga ko'ra, estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga - san'at, informatsion texnologiyalar, tabiat, mehnat, jismoniy tarbiya va sport kabi sohalarni kiritish mumkin [2].

Hozirda estetik tarbiyaning ko'lami tobora kengayib bormoqda. Shunga ko'ra, u o'z oldiga quyidagicha muhim vazifalarni qo'ygan:

- kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarni nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

- jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlarini uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Mehnat - insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyati hisoblanadi. U kundalik ma'naviy va moddiy jihatdan odamzod hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarni yaratish vositasi. Mehnatda yoshlar ayni paytda ham aqliy ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir



majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo‘qoladi. Shu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara berishi uchun erkin bo‘lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Shaxsni estetik tarbiyalashda ta’lim tizimining ro‘li nihoyatda ahamiyatlidir. Mehnat esa - turmush estetikasining muhim omili hisoblanadi. Yoshlarda xulq go‘zalligini shakllantirishning zamonaviy ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, didli va farosatlilik - yuksak madaniyat belgisi, farosatsizlik esa shaxs kamolotidagi illat hisoblanadi. Yoshlarda tabiiy go‘zallik bilan estetik didning mutanosibliги muammosi mavjud bo‘lib ularga, sipoyilik va bachkanalik kiradi. Shaxs va jamiyat estetik madaniyati mavjud bo‘lib, jamiyat ijtimoiy-ma’naviy hayotining estetik madaniyat shakllanishiga ta’siri kattadir. Shaxs va jamiyat estetik madaniyatining dialektik aloqadordir. Estetik madaniyat yuksalishining milliy va umuminsoniy jihatlari mavjud bo‘lib, estetik didga “ommaviy madaniyat”ning ijobiy va salbiy ta’siri nihoyatda katta hisoblanadi. Estetik ravnaq esa estetik ehtiyoj hamda estetik did bilan dialektik aloqador bo‘ladi. Sportning ham ma’naviy-estetik jihatlari mavjud bo‘lib, inson tanasi va turmush tarzini go‘zallashtirishga sportning ta’siri, sport estetikasining zamonaviy ahamiyati beqiyos ekanini ko‘rishimiz mumkin. Zamonning o‘zgarishi bilan insonning jamiyatga, tabiatga bo‘lgan munosabati ham o‘zgarib boradi. Bu esa shubhasiz, insonning tafakkuri bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Zotan, insoniy munosabatlarga daxldor bo‘lgan biror-bir jarayon yo‘qki, u yerda tafakkur ishtirok etmasa. Shunday ekan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashining voqelikka ko‘rsatadigan ta’siri bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib turgan milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirishning sharti sifatida alohida e’tirof etilishi bejiz emas. Bu jarayonlarda estetika amaliy jihatdan o‘zini estetik tarbiya orqali namoyon qiladi. Zero, avval boshda uqtirib o‘tganimizdek, nafosat tarbiyasi insonda hayot va san’atdagi go‘zalliklardan bahramand bo‘lish, ularni baholay bilish hamda o‘zi ham go‘zalliklar yaratish tuyg‘ularini shakllantirishga ko‘mak beradi. Ammo, bu jarayon o‘z-o‘zidan emas, balki bir qator omillar va vositalar ishtirokida amalga oshiriladi [3].

Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o‘rganadi, sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini, sport bilan san’atning o‘zaro aloqadorligini tadqiq etadi, inson jismoniy kamolotining ma’naviy-estetik jihatlari tahlildan o‘tkazadi.

Bizga ma’lumki, sport va jismoniy tarbiya deyarli doimo yonma-yon tilga olinsa-da, ular bir-biridan jiddiy farq qiladi. Jismoniy tarbiya asosan inson salomatligini ta’minlashga qaratilgan jamiyatning turli yoshdagi barcha tabaqalari ixtiyoriy tarzda “o‘zi uchun” shug‘ullanadigan, ommaviylik



tabiatiga ega mashqlar yoki mashq majmualaridan iborat. Sport esa, uning qaysi sohasida bo‘lmasin, mutaxassis ustozlar nazorati ostida maxsus tayyorgarlik ko‘rgan insonlarning, asosan yoshlarning yakkama-yakka yoki jamoaviy tarzda bellashuvini o‘z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya qay ko‘rinishda bo‘lmasin, (individual, jamoaviy), bellashuvni rad etadi va insonga turli mashq shakllaridan xohlaganini tashlash imkonini beradi. Sportda esa musobaqa birinchi o‘rinda turadi va unda muayyan mashqlar majburiy tarzda bajariladi. Lekin bu majburiylik sportning ma‘lum bir turi doirasida sportchiga erkin harakat qilish imkonini beradi, ya‘ni sportda ijodiy yondashuv taqiqlanmagan, balki qo‘llab-quvvatlanadi. Masalan, badiiy gimnastika musobaqalarida har bir sportchi qiz o‘zi tanlagan mashqni, o‘zi tanlagan musiqa jo‘rligida bajaradi, lekin sportning ushbu turiga doir qonun-qoidalardan chetga chiqolmaydi. Shunday qilib, jismoniy tarbiyani sportga qo‘shib yuborish yoki ularni almashtirish mumkin emas. Sportning boshqa ko‘pchilik turlarida esa barcha sportchilar bir xil mashqni bajaradilar, lekin ularni bir-biridan ajratib turadigan, musobaqa ruhini saqlab, uni so‘ndirmaydigan narsa, bu – har bir sportchining bir xildagi mashq ijrosiga ijodiy, o‘ziga xos yondashuvdir. Bunda sportchining o‘z a‘zosi tanasi ustidan hukmronlik qilishi shu hukmronlikni egiluvchan go‘zallik, epchillik, ulug‘vor xatti-harakatlar shaklida tomoshabinga taqdim etishini taqozo qiladi, xullas, sport inson tanasi go‘zalligining namoyishi sifatida diqqatga sazovor. Sportga qadimgi Yunonistonliklar, bundan bir necha asrlar avval ana shunday nuqtai nazardan yondashganlar. Lekin, afsuski, keyinchalik musobaqa omili go‘zallikni chetga surib, uni g‘oliblik va mag‘lublik bilan baholanadigan ehtirosni o‘yinga, qimorning o‘ziga xos turiga aylantirib qo‘ydi (qadimgi Rumdagi gladiatorlar bahsi, keyinchalik ot poygasiga pul tikishlar v.h.). Bizga ma‘lumki, o‘yinni qadimgi yunon faylasuflari estetik tabiatga ega ekanligini ta‘kidlab o‘tgan, uni san‘at bilan tenglashtirganlar, Shiller esa, ko‘rib o‘tganimizdek, badiiy faoliyatni o‘yinning eng yuksak shakli deb hisoblagan. Sport esa, eng avvalo o‘yin. Bundan inson ikki tomonlama estetik zavq oladi: o‘yinchi-sportchi va tomoshabin-tarafdorlar sifatida. Bunda tomoshabin san‘atni idrok etayotgandek sportchi bilan uyg‘unlashib, uning xatti-harakatlariga qo‘shilib ketadi, ayni paytda o‘zi sportchi emasligini, ya‘ni estetik masofani his qilib turadi. Bu borada B.Lou o‘zining “Sport go‘zalligi” degan kitobida F.Kinonning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Teatr, -deb yozadi F.Kinon, - tomoshabinga suyanib rivojlanadigan san‘at turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar o‘zlarini xuddi spektakl tomoshosidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak chaladilar va yomon o‘yin ko‘rsatganlarga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrda ham biz



“o‘yin” haqida gapiramiz”. Boshqa bir o‘rinda B.Lou H.Slyusherning “Sport va ekzistensiya” kitobidagi quyidagi satrlarga e‘tiborni qaratadi: “Sport – toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur ma’noga boy holat... sport botirlikni, yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy ko‘tarinkilikni talab qiladi, - deb yozadi H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zavq haqida” [4]. Sport estetikasining o‘ziga xos jihatlari haqida so‘z ketar ekan, hozirgi paytda sport jahon bo‘ylab juda keng yoyilgan madaniy soha sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa, buni yurtimiz misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillik sharofati bilan sportga milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida qarash shakllandi, uning hamma turi bo‘yicha musobaqalar va do‘stlik uchrashuvlari o‘tkazish odat tusiga kirdi, milliy kurashimiz esa umumbashariy sport turi maqomini oldi, maxsus jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etildi. Bularning deyarli barchasi davlatimiz rahbari tashabbusi va nazorati ostida amalga oshirildi. Shu tufayli bugun O‘zbekiston sport diyoriga, inson jismoniy go‘zalligini jahonga namoyish etayotgan mamlakatlar safidan joy oldi.

Adabiyotlar:

1. Bichkov V. V. “Estetika”. Moskva: Gardariki, 2004.
2. Lou B. “Красота спорта”. М., Радуга, 1984.
3. Abdulla Sher, B. Husanov. “Estetika”, Uslubiy qo‘llanma. Ikkinchi nashri.2010.
4. E.Umarov. “Estetika asoslari” -T.: Sharq, 2012.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada yuksak ma’naviyatli, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalangan avlodni shakllantirish, estetik tarbiyaning jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etilishi, Yoshlarda tabiiy go‘zallik bilan estetik didning mutanosibliigi muammosi, Sport estetikasi sport sohasidagi estetik qonuniyatlarni o‘rganadi, sportning estetik mazmunini, uning jamiyat madaniyatidagi o‘rnini, sport bilan san’atning o‘zaro aloqadorligi haqida aytib o‘tilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье рассматриваются формирование высокодуховного, этического и эстетически образованного поколения, научное исследование значения эстетического воспитания в процессе реформирования и модернизации общества, проблемы баланса природной красоты и эстетического вкуса у молодежи. Эстетика спорта изучает эстетические законы в области спорта, упоминается эстетическое содержание спорта, его место в культуре общества, взаимосвязь спорта и искусства.

SUMMARY

This article examines the formation of a highly spiritual, ethical and aesthetically educated generation, scientific research into the importance of aesthetic education in the process of reforming and modernizing society, and the problems of balancing natural beauty and aesthetic taste among young people. The aesthetics of sport studies aesthetic laws in the field of sport, mentioning the aesthetic content of sport, its place in the culture of society, and the relationship between sport and art.